

FILDS MUKOFOTI HAQIDA BILASIZMI?

*Muallif: **Turdiyev Rustam Tojiyevich** IIV Surxondaryo akademik litseyi
matematika fani o'qituvchisi*

Ushbu mukofot Xalqaro matematiklar kongressi tomonidan har to'rt yilda bir marta matematika sohasidagi o'ziga xos yutuqlari uchun yosh olimlarga beriladi. Odatda uni matematika sohasidagi Nobel mukofoti deb ham atashadi. Ma'lumki Nobel mukofoti 1901 yildan boshlab shved muhandis kimyogari, dinamit ixtirochisi, sanoatchi va millioner Al'fred Bernxard Nobelning (1833-1896) vasiyatiga binoan berila boshlangan. Mukofot fizika, kimyo, tibbiyot, fiziologiya, iqtisodiyot va badiiy asarlar, tinchlikni mustahkamlash bo'yicha ulkan ishlari uchun beriladi. Dastlab bu ro'yxatda matematika ham bo'lgan, biroq keyinchalik Nobelning o'zi bu ro'yxatdan matematikani chiqarib tashlagan. Ilmiy doiralarda bu holat turlicha izohlanadi. Biroq ularning hech biri asosli emas. Bu bo'shliq keyinchalik Dj.Ch.Filds tomonidan to'ldirildi

Djon Charls Filds (1863-1932) Kanada janubida Gamil'ton shahrida dunyoga keldi. Toronto universitetini tamomlagach keyingi o'n yillikda ko'proq vaqtini Yevropada o'tkazdi. U yerda ta'lim olishni davom ettirdi va ko'plab matematiklar bilan do'stona aloqalar o'rnatdi. 1902 yildan boshlab Toronto universitetida ishladi (professor). Asosiy ishlari algebraik funksiyalar nazariyasi va abel integrallari nazariyasi bilan bog'liq. Dj.Ch.Filds Kanada qirollik jamiyati prezidenti, London qirollik jamiyati a'zosi, sobiq SSSR FA muxbir a'zosi edi. 1924-yildan 1932-yilgacha Xalqaro matematiklar ittifoqi prezidenti lavozimida ishladi. Bu birinchi jahon urushi oqibatida turli mamlakatlar matematiklari o'rtasidagi aloqalar ham 1897-1912-yillar mobaynida muntazam o'tkazilib kelingan an'anaviy matematiklar kongressi ham to'xtab qolgan davr edi. Shunday bir sharoitda Fildsning turli mamlakatlar matematiklarini ulkan yutuqlari uchun taqdirlash taklifi Amerika, Fransiya, Italiya, Shvetsariya, Germaniya kabi mamlakatlar ilmiy jamoatchiligi tomonidan qizg'in kutib olindi.

1932-yilda Filds yangi mukofotni berish shartlari batafsil tavsiflangan memorandumni tayyorladi. U “ushbu mukofot xalqaro miqyosda va adolatli tarzda berilishi lozim”ligini ta’kidlab, uni “Filds mukofoti” yoxud, biron shaxs nomi bilan atalishiga qarshi ekanligini bildirdi. Biroq mukofot rasman tasdiqlangunicha Filds olamdan o’tdi, ta’sischi bu mukofotni uning nomi bilan “Filds mukofoti” deb nomlashni maqbul deb topishdi. Vasiyatga ko’ra uning mol-mulkinging bir qismi mukofot fondiga o’tkazildi.

Mukofot bilan u yoki bu shaxsning nafaqat xizmatlari, balki matematika sohasidagi keyingi faoliyati ham rag’batlantirib turiladi. Nizomga binoan mukofot 41 yoshdan oshmagan tadqiqotchilarga beriladi. Laureatga mukofot bilan birga oltin medal taqdim etiladi Filds mukofotining birinchi laureatlari nomlari 1936-yilda e’lon qilindi. O’tgan asrning 90 yillariga qadar 30 nafar matematik ushbu mukofot sohibi bo’ldi.

Filds mukofoti uchun nomzodlar sinchiklab o’rganiladi. Yakuniy qaror esa yashirin ovoz berish yo’li bilan qabul qilinadi. Taqdirlash jarayoni esa kongress ochilish marosimida bo’lib o’tadi. Unda yirik matematiklar, sohaning yetuk mutaxassisleri laureat yutuqlari haqida batafsil ma’lumot berishadilar. Matematiklar kongressi an’alariga ko’ra medal va mukofotni kongressning faxriy prezidenti taqdim etadi.